

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMATOVA INTIZORA HASAN QIZI

**BUXORO JANUBIY TUMANLARI TOPONIMLARINING LISONIY
TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation on doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Axmatova Intizora Hasan qizi

Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining lisoniy tadqiqi.....3

Ахматова Интизора Хасан кизи

Лингвистическое исследование топонимов южных районов Бухары.....23

Akmatova Intizora Hasan kizi

Linguistic study of toponyms of the southern districts of Bukhara.....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMATOVA INTIZORA HASAN QIZI

**BUXORO JANUBIY TUMANLARI TOPONIMLARINING LISONIY
TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PhD/Fil 3995 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Navoiy davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasining (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zaripov Botir Po'latovich

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna

filologiya fanlari doktori, professor

Adizova Nodira Baxtiyorovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Yetakchi ilmiy tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 29 - avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ da tarqatildi.
(2025-yil «_____» _____ dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi)



Y.S.Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.R.Axmedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M.K.Abuzalova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida joy nomlarini ifodalovchi makro va mikrotoponimlar til va nutqdagi onomastik birliklar tizimida alohida o‘rin tutishi bilan e‘tiborni tortadi. Muayyan turistik hududning maxsus to‘planmagan, kam o‘rganilgan toponimik birliklarini yig‘ish, ularning leksik-semantik xususiyatlari, nominativ, kommunikativ, uslubiy vazifalarini aniqlash esa bugungi globallashuv jarayonida dunyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy aloqalar, turistik munosabatlarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida toponimshunoslik tilshunoslikning onomastika sohasi tarkibida muhim yo‘nalish sifatida tobora takomillashib bormoqda. Uning tarkibida muayyan mahalliy hudud joy nomlarini ifodalovchi urbanonim, gidronim, oronim, oykonim, xoronim, nekronim kabi onomastikaning mustaqil turlari genezisi va etimologiyasini o‘sha yerda istiqomat qiluvchi aholining milliy an‘ana va qadriyatlari, turmush tarzi, e‘tiqodiy dunyoqarashi, tarixiy-madaniy boyliklari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida aniqlash, leksik-semantik xususiyatlarini, xalqning lisoniy, tarixiy, geografik, etnografik, diniy-mifologik qarashlari mujassamlashgan toponimlarning lingvogeografik, etnolingvistik, lingvokulturologik, konseptual, paradigmatic, onomastik-grammatik belgilarini ochish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda “Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta‘minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy”¹ bo‘lgan hozirgi bir sharoitda ishlab chiqilgan toponimik siyosat toponimika sohasini ilmiy-nazariy va amaliy yo‘nalishlarda jiddiy rivojlantirishni ham talab etadi. Buning uchun joylarda tashkil qilingan toponimik komissiyalar va markazlashtirilgan toponimik xizmatlarga joy nomlarini aniqlash, saqlash, o‘zgartirish yo‘lida ularning ilmiy va amaliy jihatlarini puxta o‘rganan tadqiqotlar katta amaliy yordam bera oladi. Shu kabi talab va ehtiyojlar natijasida o‘zbek tilshunosligida xalq tarixi, qadriyati, an‘ana va urf-odatlarini o‘zida to‘liq ifodalovchi lisoniy birliklar – toponimlarni muayyan hudud misolida lingvistik tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jihatdan qadimdan shakllangan va hozirda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish yo‘lini bosib o‘tayotgan Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining leksik-semantik, onomastik-grammatik xususiyatlari, kelib chiqish asoslarini lingvogeografik, etnolingvistik hamda lingvokulturologik aspektida o‘rganish dolzarblik kasb etadi. Shu ma‘noda, Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining leksik-semantik tadqiqi yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // www.lex.uz.

2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 989-sonli “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida H.A.Smit, A.L.Dauzat, G.J.Kopley, G.V.Lemon kabilarning ilmiy izlanishlari toponimikaning fan sifatida shakllanishida alohida e’tirofga loyiq². Rus tilshunosligida esa bu borada A.V.Superanskaya, V.D.Belenkaya, A.A.Belestkiy, O.T.Molchanova, E.M.Murzayev, N.Y.Podolskaya³ kabi olimlarning toponimika sohasidagi maqsadli tadqiqotlarni keltirib o‘tish o‘rinli.

O‘zbek toponimshunosligining nazariy asoslari yaratilishida T.Nafasovning Qashqadaryo viloyati toponimlari, Sh.Qodirovaning Toshkent mikrotoponimlari, T.Rahmatovning Samarqand toponimi etimologiyasi, J.Latipovning Marg‘ilon shahri joy nomlari, L.Karimovanning o‘zbek tilida toponimlarning o‘rganilishi, S.N.Nayimovning Buxoro viloyati oykonimlari, Z.Do‘simovning Xorazm toponimlari, X.Xolmo‘minovning Surxondaryo viloyati toponimlari, B.O‘rinboyevning Jizzax va Samarqand viloyati toponimlarining izohi, A.Muhammadjonovning toponimlar ilmiy tavsifi va etimologik tahlilining tarixiy jihatlari, E.Begmatovning o‘zbek antroponimlari hamda toponimikasi, A.Otajonovanning Xorazm etnotoponimlarining nazariy masalalari, B.Kilichevning Buxoro viloyati toponimlari tadqiqiga bag‘ishlangan maqola, monografiya va dissertatsiyalari muhim ahamiyat kasb etdi⁴.

²Smit. A.H. English Place-Names Elements. – Cambridge: 1956. – 163 p.; Dauzat A. La Toponymie française. – Paris: Biblio thè quescientifique, Payot, 1960, Réimpression 1971 – 168 p.; Copley G. J. Names and Places with a short dictionary of common or wellknown place-names. – London: Phoenix House Ltd., 1963. – 226 p.; Lemon G.V. English Etymology. – G.: Robinson, 1783. – 693 p.

³Суперанская А. В. Что такое топонимика? – М.: Наука, 1985. – 176 с.; Белецкая В.Д. Топонимы в составе лексической системы языка. – М., 1969. – 166 с.; Белецкий А.А. Лексикология и теория языкознания (ономастика). – Киев., 1971. – 156 с.; Молчанова О.Т. Топонимический словарь Горного Алтая. – Горно-Алтайск, 1979. – 398 с.; Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. – М.: Мысль, 1974. – 382 с.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. – 188 с.

⁴Нафасов Т. Қашқадарё область топонимлари: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Т., 1968. – 301 б.; Кадырова Ш. М. Микропонимы Ташкента: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1970. 28 – с.; Рахматов Т. Этимология топонима Самарканд // СТ. – Баку, 1973. – № 4. – С. 43-50; Латипов Ж. Марғилон шаҳри ва унинг атрофи топонимияси: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Т., 1975. – 219 б.; Каримова Л. Ўзбек тилида

Buxorodagi toponimlar, ularning nomlanishi hamda nomlanish me'yorlari haqida tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy manbalarda turli sharh, talqin mazmunidagi bir qancha qaydlar XX asrgacha ham mavjud bo'lgan⁵.

Dissertatsiyani yozish jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator o'zbek hamda jahon tilshunoslarining ilmiy izlanishlari e'tiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining leksik-semantik tadqiqi masalalari monografik tarzda tekshirilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2021-2025 yillarga mo'ljallangan "O'zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro janubiy tumanlari toponimlari (BJTT)ning kelib chiqish omillari, nomlanish sabablari, leksik-semantik va onomastik-grammatik xususiyatlarini toponimik tahlil, lingvomadaniy hamda etnolingvistik tamoyillar asosida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Buxoro janubiy tumanlari toponimlari bo'yicha faktik materiallarni yig'ib, ularni ifodalovchi onomastik birliklarga xos grammatik, leksik-semantik, etimologik, lingvotoponimik belgilarning umumiy va xususiy belgilari hudud aholisining tili, dunyoqarashi, milliy an'ana va urf-odatlariga bog'liqligini ochib berish;

Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining onomastik-morfologik tarkibini jahon tilshunosligidagi toponimshunoslik termin hamda tushunchalari, tadqiq tamoyillari va usullari asosida aniqlash;

Buxoro janubiy tumanlari toponimlarini onomastik-morfologik va derivatsion xususiyatlari hamda tarkibiy tuzilishi bo'yicha tasniflash;

Buxoro janubiy tumanlari hududidagi joy nomlarining lisoniy tabiatini onomastik leksika sathi me'yorlariga mos holda ochish va semantik tiplarini dalillash;

Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining kelib chiqish asos va omillarini, nomlanish xususiyatlarini sinxron, qisman diaxron aspektda yoritish;

топонимларнинг ўрганилиши. – Т.: Фан, 1982. – 96 б.; Найимов С.Н. Ойконимы Бухарской области: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1984. – 20 б.; Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Т.: Фан, 1985. – 104 б.; Холмўминов Х. Бойсун район микротопонимларининг лексик-семантик хусусиятлари // Ўзбек тилининг лексик-грамматик хусусиятлари. Илмий мақолалар тўплами. – Т., 1988. – Б. 73-75; Ўринбоев Б. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах, 1992. – 53 б.; Ўринбоев Б. Самарқанд вилояти топонимларининг изохи. – Самарқанд, 1997. – 202 б.; Муҳаммаджонов А. Жой номлари – тарихий манбадир // Илмий-амалий конференция докладлари тезислари. – Т., 1994. – Б. 15-17; Бегматов Э. Истиклол ўлкасининг топонимик сийёсати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 1997. – № 3. – Б. 3-9; Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари. – Т.: Фан, 1997. – Б. 94-111; Kilichev В.Е. Вухоро viloyati toponimlarining lingvisik tadqiqi: Filol. fanl. dokt. ... diss. – Вухоро, 2024. – 224 б.

⁵Абу Бакр ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. – Т.: Фан, 1966. – 119 б.; Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома. 1-жилд. – Т., 1966. – 273 б.; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т., 1960. – 512 б.; Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843; Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зерафшанском округе с приложением списка населенных мест округа. – СПб., 1874; Ситянковский Н.Ф. Заметки о Бухарской части долины Зерафшана. ИТОРГО. Т.1, вып. 2. 1900. – С.121-314.

Hudud toponimlari bo'yicha izohli lug'at yaratish asosida viloyat va respublika toponimiya komissiyalari ishida joy nomlarini rasmiylashtirishni tartibga solish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlari toponimlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining etimologiyasi, leksik-semantik va onomastik-grammatik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, lingvogeografik, tahlil va umumlashtirish, nominativ-onomosiologik, matematik statistika, funksional-semantik kabi metod va usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining hududdagi hamda mamlakatdagi toponimlar bilan umumiy va xususiy belgilari shu joy aholisining til xususiyatlari, dunyoqarashi, milliy an'ana hamda urf-odatlariga bog'liqligi yig'ilgan faktik dalillar orqali asoslangan;

Buxoro janubiy tumanlari joy nomlarining etimologiyasi, lug'aviy ma'nolari, fonetik, morfemik va morfologik tarkibiy tuzilishiga ko'ra grammatik modellari, ularning diaxron hamda sinxronligi hozirgi o'zbek tili toponimikasi nazariyasiga muvofiq aniqlangan;

Buxoro janubiy tumanlari hududidagi joy nomlarining etnotoponim, antropotoponim, gidrotoponim, fitotoponim, kasb-kor atamalari asosida shakllangan semantik tiplari, oykonimlar onomastik leksika sathi me'yorlariga mos holda tasniflanib, ularning lingvistik tabiatiga xos lisoniy, onomastik-grammatik xususiyatlari ochib berilgan;

Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining yasalişhida ko'pincha *rabot*, *metan/mitan*, *tepa*, *obod* komponentlari faol qo'llanganligi, ularning tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib taqalishi, toponimlarning yasalişhida onomastik konversiya muhim o'rin tutganligi hamda toponimlarning sintaktik aloqasi alohida ahamiyat kasb etgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Buxoro janubiy tumanlari toponimlari bo'yicha yig'ilgan keng faktik materiallar asosida joy nomlarini ifodalovchi onomastik birliklarga xos grammatik, leksik-semantik, etimologik, lingvotoponimik belgilarning umumiy va xususiy belgilari hudud aholisining tili, dunyoqarashi, milliy an'ana va urf-odatlariga bog'liqligi dalillangan;

hudud toponimlariga oid materiallar tahlilidan kelib chiqadigan ilmiy xulosalar o'zbek toponimshunosligining nazariy va amaliy asoslari hamda tahlil usullarini boyitishi asoslangan;

Buxoro janubiy tumanlari toponimlari ilmiy tadqiqi natijalari onomastikaning muhim yo'nalishi bo'lgan toponimika bo'yicha izohli, imlo lug'atlarini yaratishda, viloyat va respublika toponimiya komissiyalari ishida joy nomlarini rasmiylashtirishni tartibga solish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda manba sifatida qo'llanishi mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻllanilgan yondashuv, usul va nazariy maʼlumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar qiyosiy-tarixiy, lingvogeografik, tahlil va umumlashtirish, nominativ-onomosiologik, matematik statistika, funksional-semantik metodlar vositasida asoslanganligi, mavzu yuzasidan chop etilgan monografiya, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashriyotlarda eʼlon qilingan maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Buxoro viloyati hamda mamlakat hududidagi har bir tuman toponimlari boʻyicha lingvistik tadqiqot yuritish, ularning grammatik, leksik-semantik, etimologik umumiy va xususiy belgilarini aniqlash, izohli va imlo lugʻatini yaratish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan “Oʻzbek onomastikasi”, “Oʻzbek dialektologiyasi”, “Hozirgi oʻzbek tili” fanlariga aloqador muammolarni tadqiq etish bilan bogʻliq ilmiy-nazariy qarashlarni toʻldirish va kengaytirish, “Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining izohli lugʻati”ni yaratish, yosh avlod tarbiyasida ona-Vatanga muhabbat va sadoqat tuygʻularini rivojlantirishda foydalanish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoro janubiy tumanlari toponimlarini lisoniy tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Buxoro janubiy tumanlari toponimiyasini oʻrganish va ilmiy xulosalar chiqarishda, oʻzbek nomshunosligida hozirga qadar mavjud boʻlgan ilmiy tasavvurlarni maʼlum darajada toʻldirishda, oʻzbek dialektologiyasi, oʻzbek tili tarixiy leksikologiyasi masalalarini ochib berishdagi ilmiy-nazariy qarashlardan 2021-2023-yillarda bajarilgan “Oʻzbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2024-yil 30-iyuldagi 502/01-01-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzbek tili milliy korpusi materiallarida uchraydigan joy nomlari, ularning milliy anʼana va urf-odatlar bilan bogʻliqligi oydinlashtirilgan;

“Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining lisoniy tadqiqi” mavzuiga oid tadqiqoti natijalaridan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi moʻjiza”, “Diyor” kabi telekoʻrsatuvlarida foydalanildi (Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «Buxoro» telekanalining 2024-yil 28-avgustdagi 01-09-123-son maʼlumotnomasi). Natijada viloyat toponimiyasiga tegishli ayrim tarixiy toponimlarning maʼnosi, ularning paydo boʻlish sabablari va ayrim oykonimlarning yasalishida *rabot*, *metan/mitan* komponentlari muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi maʼlumotlar tomoshabinlar auditoriyasiga yetkazilgan;

“Buxoro janubiy tumanlari toponimlari” monografiyasidan viloyat geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi komissiya faoliyatida foydalanilgan (Geografik obyektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi

viloyat komissiyasi 2024-yil 7-sentyabrdagi 19/4829-son ma'lumotnomasi). Natijada "Buxoro janubiy tumanlari toponimlari" monografiyasida keltirilgan ma'lumotlardan Qorako'l va Olot tumanlari hududida mavjud bo'lgan oykonim, gidronim, nekronim va fitonimlar, shuningdek, boshqa turli geografik obyektlarning nomlarini sharhlash, ularning kelib chiqishi va etimologiyasi bilan bog'liq masalalarni aniqlashda asos vazifasini o'tagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 3 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbek tilshunosligida joy nomlarini o'rganish yo'nalishining shakllanishi**" deb nomlangan. Bobning "Joy nomlari va ular bilan aloqador tushunchalarning o'rganilishi" deb nomlangan birinchi faslida toponimlar, ularning turlari, shakl va ko'rinishlari masalasiga bag'ishlangan ishlar tahlili keltirilgan⁶.

Toponimika geografik nomlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi; lingvistikaning til tarixi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya kabi sohalari bilan kesishadigan; tarix, geografiya, etnografiya fanlari bilan uzviy aloqadorlikda bo'lgan alohida bir sohadir. Shuningdek, toponimika leksikologiyaning geografik nomlarni o'rganuvchi bo'limi; biror hududning geografik nomlari jamlanmasi, deb ham ta'riflanadi.

Geografik obyektning atamashunoslikdagi umumlashma nomi *toponim* hisoblanar ekan, ushbu atama asosida *toponimiya*, *toponimika* kabilar tegishli

⁶Подольская Н.В., Суперанская А.В. Терминология ономастики // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1969. – №4. – С.141; Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – С. 164; Хасанов Х, Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Т.: Фан, 1965. – Б. 3; Қорасев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б. 6; Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 76-83.

hududda yashaydigan millat va xalqlarning o‘tmishini, tarixiy rivojlanishini hamda etnik jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi. Onomastikada *toponim*, *toponimiya*, *toponimika* kabi tushunchalar biri ikkinchisini, ikkinchisi uchinchisini va h.k. taqozo etadi. *Toponim* – har qanday joyning nomi; *toponimiya* – biror til yoki hududda uchraydigan joy nomlari majmuasi, *toponimika* (*toponimistika* / *toponamastika* deb nomlanish ham kuzatiladi) – nomshunoslikning joy nomlarining paydo bo‘lishi, rivoji, vazifaviy xususiyatlarini o‘rganuvchi sohasidir.

Ushbu bo‘limda uzoq o‘tmishdan bugungi kunga qadar toponimiya sohasida amalga oshirilgan ishlar tanqidiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, o‘zbek toponimiyasini tadqiq etish borasida bajarilgan ishlar 5 guruhga ajratilgan holda sharhlangan.

Bobning “Onomastikada toponimikaning o‘rni, yondosh fanlar bilan munosabati va toponimlarning nomlanish xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi faslida toponimika onomastikaning geografik nomlar (toponimlar), ularning qo‘llanishi, ma‘nosi, kelib chiqishi, tarkibi, tarqalish areali, davrlar davomida taraqqiyoti va o‘zgarishini o‘rganuvchi bo‘limi ekanligi hamda onomastikada o‘ziga xos o‘ringa egaligi bir qator manbalarga tayangan holda asoslab berilgan.

Atoqli ot darajasiga ko‘tarilgan joy nomlari onomastikaning tadqiq sohasiga kiradi. Onomastikada atoqli otlar ham, ular bilan aloqador bo‘lgan turdosh otlar ham tadqiq obyekti bo‘lishi mumkin. Toponimlar o‘zi atagan obyekt haqida ko‘plab ma‘lumotlarni berishi mumkinki, tilning boshqa hodisasida bunday imkoniyat mavjud emas. Toponimika onomastikaning bir sohasi sifatida uning tarkibiga kiruvchi yo‘nalishlardan ayrim o‘ziga xosliklarga egaligi bilan ajralib turadi. Avvalo, toponimika qamrovida geografik birliklar o‘rganiladi, qolaversa, ushbu birliklar o‘ziga xos yasaliş xususiyatlariga ega. Toponimiyada har bir obyekt o‘z nomiga ega. Ularning alohida yasaliş qonuniyatlari, usullari mavjud. Toponimlar apellyativ leksika bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, toponimlarda konversiya – ko‘chish usuli keng qo‘llanadi.

Toponimlar ijtimoiy talab, kundalik ehtiyoj natijasi sifatida yuzaga keladi. Ishda bu ehtiyojlarga asos bo‘lgan 7 ta omil misollar asosida bayon etilgan. Joyga nom berish jarayoni ehtiyoj, taklif, nom, moslashish, nomlanish kabi bosqichlarni tashkil etadi. Bunda biror geografik obyektga nom berish ehtiyoji yuzaga keladi, obyektning biror jihati (tarixi, aholisining etnik qatlami, kasb-kori, joyning reliefi, biror yirik obyektga yaqinligi va h.k.)dan kelib chiqib nom taklif etiladi. Kelishish yoki tasodifiylik asosida paydo bo‘lgan nom qisqa yoki uzoq muddat obyektning nomlashga xizmat qiladi.

Mazkur qismda toponimikaning tarix va geografiya fanlari bilan munosabati masalasi ham tahlil etilgan. Bunda toponimlar o‘zi mansub bo‘lgan hudud tarixi, madaniyati, aholining turmush tarzi, tili, joyning geografiyasi haqida ma‘lumot beradigan muhim manba ekanligi, shuning uchun ular nafaqat tilshunoslik, balki tarix va geografiya sohalarining ham o‘rganish obyekti sanalishi ta’kidlangan.

Toponimlar o‘zi atalgan hududning tarixi, uning tarixiy taraqqiyot yo‘lini ham yorituvchi bir vosita sanaladi. Deyarli barcha toponimlar biror-bir tarixiy

hodisa yoki jarayon haqida ma'lumot beradi. Shuning uchun toponimlar xalq tarixini o'rganish manbai sanaladi. Joy nomlarida turli davrlardagi muhim voqealar, tarixiy shaxslar, u yerda yashagan xalqning etnik xususiyatlari o'z aksini topadi.

Joy nomlari geografiya fani bilan ham uzviy aloqada turadi. Toponimlar, avvalo, geografik obyektlarning aniq manzillarini ko'rsatadi. Shuning uchun toponimika geografiya fani uchun alohida ahamiyatli bo'lib, ayrim olimlar uni geografik fanlar sirasiga qo'shadilar. Haqiqatdan ham, toponimlarning ma'nosini aniqlashda geografik qonuniyatlar qo'l keladi. Hech shubhasiz aytish mumkinki, joy nomlarni geografiyadan ajralgan holda o'rganib bo'lmaydi. Chunki toponimikaning muammolarini geograflarning ishtirokisiz hal qilish mavhum va noto'g'ri xulosalarni keltirib chiqaradi.

Geografik qonuniyatlarni bilmasdan turib toponimlarning etimologiyasi haqida fikr bildirish ko'pincha xatolikni yuzaga chiqaradi. Nomlar vositasida hududning tabiiy-geografik, aholining joylashish xususiyatlarini, aholi manzillarining shakllanish jihatlarini aniqlash mumkin. Nomlar ko'p holatlarda o'simliklar, jonivorlar, foydali qazilmalar, qishloqlar, daryolar va boshqa geografik obyektlarning nomlari bo'lganda, u yoki bu hududning avvalgi yoki hozirgi tabiiy sharoiti haqida qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur bo'limda toponimika tilshunoslikning alohida sohasi sanalgan onomastikaning tarkibiy qismi ekanligi hamda u lingvistika doirasida turib tarix va geografiya fanlari bilan aloqadorlikda tadqiq qilinishi asoslangan.

Bobning uchinchi fasli "O'zbek toponimiyasida tasnif masalasi" deb nomlangan. Dissertatsiyaning bu faslida o'zbek tilshunosligida toponimlarni tasniflash bo'yicha qilingan ishlarga diqqat qaratilgan.

O'zbek tili toponimlarini tasniflash masalasi tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'lgan va bir necha maxsus ishlar amalga oshirilgan⁷. Toponimlarni tasniflashda asosan ikki yo'nalish – *leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko'ra tasnif* qilish yaqqol ko'zga tashlanadi. Ishda 1-qarash to'rt guruhni tashkil etishi, 2-qarash esa besh guruhni qamrab olishi bayon etilgan.

Qashqadaryo viloyati va shimoliy o'zbek shevalari toponimlarini o'rgangan T.Nafasov va L.Karimovalar leksik-semantik tasnifning ancha mukammal variantini taklif qilgan.

Ayrim tadqiqotchilar joy nomlarining qo'llanish xususiyatiga ko'ra, hududga nisbatan katta-kichikligiga ko'ra, qanday tarkibiy qismlar (komponentlar)dan iborat ekanligiga ko'ra, joy nomlarining leksik, leksik-semantik hamda morfologik tasnifi kabilarni taklif etganlar⁸. Biz ishimizda leksik, leksik-semantik hamda grammatik tasnifdan foydalanishni ma'qul ko'rganmiz.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining tarkibiy hamda semantik tadqiqi**" deb nomlangan. Bobning

⁷ Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.: Фан, 1978. – №1. – Б.17-20.

⁸ Назаров К., Эназаров Т. Жой номларини йиғиш сўроқлиги. – Т.: Университет, 1995. – Б. 19-24.

“Buxoro janubiy tumanlari toponimlarining fonetik va tarkibiy tuzilishi” nomli bo‘limida, avvalo, Buxoro janubiy tumanlari toponimlari (BJTT)ning fonetik tuzilishi, ularda tovushlarning joylashishi, nomning qancha va qanday tovushlardan hosil bo‘lishi tahlil etilgan. Xususan, hudud toponimlari VCVC - Olot; CVCC – Baxt; CVCV – Shodi tarzidagi (jami: 16 xil) kabi unli-undosh munosabatidagi nomlardan tuzilganligi asoslangan. Shuningdek, BJTT necha bo‘g‘indan tashkil topganligi jihatidan ikki bo‘g‘inli: *Adham, Arna, Bayot, Balxi, Chovli, Chandir*; uch bo‘g‘inli: *Davlatboy, Chig‘atoy, Chovurchi, Qumqishloq*; to‘rt, besh va undan ortiq bo‘g‘inli: *Darg‘abog‘i, Qassobbayot* tarzida tavsiflangan.

BJTT o‘ziga xos tarkibiy xususiyatlarga ega. Nom tarkibidagi morfologik qurilish uning leksik-semantik xususiyatlarini aniqroq, batafsilroq bayon etishga ko‘maklashadi. Shu jihatdan qaraganda, hudud toponimiyasidagi geografik obyekt nomlari so‘z qurilishi jihatdan ham rang-barangligini kuzatish mumkin. Bunda faqat bir asosdan, asos va qo‘shimchadan, asos va asosdan tashkil topgan holatlari kuzatiladi: 1. Bir asosli: *Arna, Olot, Qiyos*; 2. Asos+affiks shaklida: *Jiydali, Kesakli* va boshqalar. Ta’kidlash kerakki, *Qumkashon, Turon, Shohimardon, Sho‘rkashon* kabi nomlar ham aslida ikki qismdan iborat bo‘lib, ular *Qum+kash+on* (qum tashuvchi), *Tur+on* (turlar), *Shohi+mard+on* (mardlar shohi), *Sho‘r+kash+on* (sho‘r tashuvchilar) shaklidagi qo‘shilish natijasida paydo bo‘lgan. Toponimist S.Qorayev bu haqda shunday fikr bildirgan: “*bu tojikcha affiks O‘zbekiston sharoitida aksari toponim yasaydi va kishilarning qandaydir ijtimoiy guruhga, chunonchi: 1) muayyan millatga – Arabon (arablar), Qirg‘izon (qirg‘izlar), O‘zbekon (o‘zbeklar); 2) qandaydir urug‘-aymoqqa – Mang‘iton (mang‘itlar), Mingon (ming urug‘idan bo‘lgan kishilar); 3) ma‘lum tabaqaga – Mirzoyon (kotiblar), Tarxonon (oliq-soliqdan ozod qilinganlar); 4) hunar-kasbga – Bo‘yrabofon (bo‘yra to‘quvchilar), Kosagaron (kosa ustalari), So‘zangaron (igna ustalari); 5) diniy e‘tiqodga mansub ekanligini bildiradi: Mug‘on, Mug‘iyon (otashparastlar), Hinduvon (hindlar) va h.k.*”⁹. 3. Asos+asos shaklida: *Baland+machit, Bayram+hoji* kabilar.

Asos+asos shaklidagi *Chandir+obod, Dehqon+obod, Fayz+obod, Gul+obod, Haydar+obod, Husni+obod, Jayxun+obod, Mir+obod, Nur+obod, Paxta+obod, Sulton+obod, Xo‘ja+obod, Sher+obod* kabi ko‘rinishlari ham mavjud bo‘lib, aslida ular tarkibidagi “obod” qismi topoformant hisoblanadi. Bu haqda tadqiqotchi O‘.Rajabov fikr yuritib, uning Xorazm shevalarida *avat* shaklida qo‘llanishini qayd etgan¹⁰. Shuningdek, A.L.Xromov *obod* komponenti O‘rta Osiyoda eng sermahsul topoformantlardandir, uning tarqalish areali Eron, Afg‘oniston va Pokiston kabi mamlakatlarni ham o‘z ichiga olishini yozadi¹¹.

⁹ Qorayev S. Toponimika. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – B. 9.

¹⁰ Ражабов Ў. Хоразм топонимияси индикаторларининг лисоний таҳлили: Филол. фанл. номз. ... дисс. – Т., 2007. – Б.47.

¹¹ Хромов А.Л. Таджикская микропонимия долин Верхнего Зеравшана и Ягноба // Ономастика Средней Азии. – М., 1978. – С.60.

BJTTning leksik-semantik tasnifini quyidagicha ko'rsatish mumkin (qarang: 1-jadval)

1-jadval.

T/r	Geografik obyekt nomi	Soni		Foizi
		Olot	Qorako'l	
1	Aholi punkti	62	92	14
2	Ariq	3	7	0,9
3	Aylanma ko'cha	39	-	3,5
4	Berk ko'cha	45	-	4,1
5	Do'nglik (tepa)	1	7	0,7
6	Istirohat bog'i	1	1	0,1
7	Kanal	2	2	0,3
8	Kollektor	5	4	0,8
9	Kon	7	12	1,7
10	Ko'cha	133	248	34,6
11	Ko'l	5	5	0,9
12	Mahalla	38	50	8
13	Muyulishli ko'cha	103	-	9,3
14	Plato	1	-	0,1
15	Qabriston	54	35	8,1
16	Qir	-	2	0,1
17	Qishloq	10	16	2,6
18	Qumlik	-	3	0,2
19	Suv ombori	-	8	0,8
20	Suv tashlamasi	1	-	0,1
21	Tabiiy maydon	9	18	2,4
22	Temiryo'l stansiyasi	2	1	0,2
23	Tor ko'cha	18	-	1,6
24	Tog'	4	-	0,3
25	Shahar	1	1	0,2
26	Shaharcha	8	12	1,8
27	Shohko'cha	14	5	1,8
28	Sho'rxok	1	1	0,1
29	Cho'l	-	1	0,1
Jami umumiy				1098

Bobning "Buxoro janubiy tumanlari oykonimlarining semantik tahlili" nomli bo'limida toponimlarning paydo bo'lishi ma'lum bir sabab va qonuniyatlar asosida ro'y berishi asoslanilib, hududdagi geografik obyektlarning nomlari biror sabab, yoki biror asosning natijasi ekanligi ko'rsatilgan. Hududda ko'plab oykonimlar mavjudki, ular uzoq tarix davomida shakllangan hamda o'ziga xos semantik va etimologik xususiyatlarni namoyon etgan. *Arna* – Qorako'l tumanidagi mahalla va aholi punkti nomi. *Arna* – "jarlik", "kanal", "soylik", "jar", "*arna*" so'zi juda

qadimgi. *Arna* – daryodan hosil bo‘lgan kanal¹². V.V.Bartoldning ta’kidlashicha, arna Xorazmchadan kelib chiqqan: “X asrlarda Xorazmda boshqa eroniylar uchun tushunarsiz bo‘lgan xalq hali o‘zining ona tilida gapirishda davom etgan va hatto yozma hujjatlarda qo‘llanilgan, bizningcha, bu til keyinchalik forsiy deb surib chiqarilmagan, turkiy til deb hisoblangan, shubhasiz, Xorazmiy tilining qoldiqlari, sug‘orishning ayrim sun‘iy terminlari hisoblangan (*arna* – katta kanal, *yop* – kichkina kanal)”. V.V.Bartoldning so‘zlari bo‘yicha quyidagi sitata keltiriladi: “xorazmiy tili o‘zbek tili leksikasining Xorazm shevalarida o‘z izini qoldirgan (masalan, sug‘orishda xorazmiy terminlari saqlanilgan: *arna* – “katta kanal”, *yop* – “kichkina kanal, ariq”¹³. Mazkur fikrni o‘zbek olimi rivojlantiradi: “Xorazmda katta kanallar “*arna*”, kichkinalari – “*yop*” deb atalgan¹⁴. *Arna* terminining arealiga kelsak, V.V.Bartoldning ko‘rsatganiga qaraganda, u nisbatan kengroq va tasdiqlashicha, *arna* so‘zi “faqat Xiva va turkmanlarda” uchraydi¹⁵. Xorazm va Turkmanistondan tashqari *arna* termini O‘zbekiston aholisining boshqa qismlarining belgisi hamdir, masalan, Jizzax viloyatining Zomin, Jizzax, G‘allaorol, Forish tumanlarida *arna* termini vaqtli oqimlarda yorilgan jar-quruq o‘zanining sinonimi hisoblanadi. Bunga misol bo‘lib, Sirdaryo viloyatining Arnasoy tumani xizmat qilishi mumkin. Shunday qilib, *arna* so‘zi (Xorazm va Turkmaniston) bir tumanni ifodalaydigan “magistral kanal va oqim” mustaqil turdosh geografik termin hisoblanadi, boshqa tomondan (Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida) – “quruq o‘zan, jar”, uchinchi tomondan, “daryo” Shimoliy Qirg‘izistonda (qiyoslang: katta arna va kichik arna daryolari), Qozog‘istonda esa “daryo o‘zani”. Biroq *arna* terminining ma‘nosi kanalga nisbatan kengroqdir. S.P.Tolstovning fikricha, *arna* – “*manba, kalit*” ma‘nosini ifodalaydi¹⁶.

Mazkur so‘zning ma‘nosi Y.G‘ulomov tomonidan ham to‘g‘ri ta’kidlangan: “Asosiy va katta kanallar, kanallarning keng qismlari arna deb nomlanadi. Keyingi termin xususiy ma‘noda daryoning o‘zanga bo‘linishidagi oqimga tegishlidir. “*Arna*” termini ostida uning “oroldan ajralgan yoki sayoz, daryoning qismi, oqimi”ni tushunish mumkin. Sun‘iy kanallarga nisbatan mazkur terminning qo‘llanilishi shunday tushuntiriladi, oxirgisi kattaligi bo‘yicha daryoning qismi sifatida qaraladi. Misol uchun: *Paxtaarna*, *Shovotarna*, *Polvonarna*, *Otaliqarna*. Shu bilan birgalikda, bu termin bilan *Bog‘lanarna*, *Kesikarna* sifatidagi Amudaryoning shunday oqimlari ham ifodalanadi¹⁷.

Dissertatsiyada jami: 53ta oykonim semantik-etimologik jihatdan tahlil qilingan.

Bobning «Tumandagi etnotoponimlar tasnifi» nomli bo‘limida BJTT tarkibidagi etnotoponimlar alohida bir leksik qatlam sanalishi qayd etilib, ulardan 29tasi semantik-etimologik jihatdan tahlil qilingan. Jumladan,

¹² Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. – СПб, 1893. Том I. – С.303.

¹³ Народы Средней Азии и Казахстана. – М., 1962. Часть I. – С.140.

¹⁴ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. – Т., 1957. – С. 294.

¹⁵ Бартольд В.В. Сочинения. – М.: Восточная литература, Том I. 1963. – С.122.

¹⁶ Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.-Л., 1948. – С.81.

¹⁷ Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. – Т., 1957. – С.243.

Arlot/Orlot/Olot/Olotxona – turkiy va mo‘g‘ul xalqlari uchun umumiy bo‘lgan qabila nomi. Chingizxon o‘g‘li Chig‘atoyga taqdim etgan to‘rtta qabiladan biri – arlot. Bu qabila Afg‘onistonning shimoliy qismida o‘rnashib qolgan. Movarounnahrda arlotlar kam bo‘lsa ham, nufuzli qabilalardan hisoblangan¹⁸. Arlot qabilasi 92 bog‘li o‘zbek qavmlari qatorida ko‘plab tarixiy manbalarda tilga olingan. Qabila nomi *allat, olot* shakllarida ham talaffuz qilinadi.

O‘rta asrlarning so‘nggi davrlarida arlotlar etnik mansubligini va butunligini unutgan, turli qabila, urug‘lar tarkibiga singib ketgan. Qadimgi turkiy etnonim mahalla, guzar nomiga aylangan¹⁹.

Arlotlar o‘zbek qavmlarining eng ko‘p tarqalganlaridan biridir. Mazkur qavm Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Xorazm, va Qashqadaryo viloyatlarida, shuningdek, Afg‘onistonning shimolida keng tarqalgan.

Olot, Olotxona toponimlari Kogon, Buxoro, Olot tumanlarida uchraydi. *Olot* – orlot etnonimining fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir. *Olot* o‘zbek xalqi tarkibida uchraydigan urug‘lardan biri. Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zining “Shajarayi turk” kitobida *orlot* urug‘ini *mo‘g‘ul avlodlari* deb atalgan qismida tilga oladi va arlot so‘zining asl ma‘nosi *onasining sevgan o‘g‘li* demakdir, deydi.

Toponim tarkibidagi *xona* so‘ziga *uy yoki binoning devor bilan ajratilgan har bir alohida qismi, bo‘lma*, deb ta‘rif berilgan²⁰. Aslida fors-tojikcha bo‘lgan *xona* so‘zidan *ish joyi; biror buyum turadigan, saqlanadigan joy* ma‘nosidagi ko‘plab so‘zlar yasalgan (to‘pxona, nonxona, otxona, molxona va b.).

Xullas, Alotxona – *arlot urug‘i vakillari yashaydigan maskan* degan ma‘noga ega.

Bayot – Qorako‘l tumanidagi qishloq nomi. *Bayot* degan turkman qabilasi bo‘lgan. Qorako‘l vohasida anchagina bayotlar yashagan²¹. Bayot qadimgi turk tilida 1) xudo, tangri; 2) turkman-o‘g‘uzlarining to‘qqizinchi qavmi²². Bayot – “boylar” degan ma‘noni ham bildirgan²³. Toponimga etnonim asos bo‘lgan.

Mahmud Koshg‘ariy yigirma ikki urug‘i orasida to‘qqizinchisi *bajfat* deb tilga olar ekan, bu so‘z arg‘u tilida “*xudo, tangri*” degan ma‘noni anglatishini ham qayd qiladi²⁴.

A.N.Samoylovich mazkur nomni totemik ma‘nodagi bu so‘z qabila nomi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa kerak deb hisoblaydi²⁵. Uning fikricha, bu so‘z *bayan* «boy» so‘zining ko‘plik formasi bo‘lib, *-t* affiksi orqali hosil qilingandir.

Rashiddinning qayd etishicha, *Bayat* antroponimik nom bo‘lib, Kunxanning ikkinchi o‘g‘lining ismidir. Bu so‘z “*baxtli va rahmdil*” degan ma‘noni bildiradi²⁶.

¹⁸ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М., 1976. – С. 176-177.

¹⁹ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Т.: Мухаррир, 2009. – Б.46.

²⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли, 2-жилд. – М.: Рус тили, 1981. – Б.331.

²¹ Материалы по районированию Средней Азии. Кн 1. Территория и население Бухары и Хорезма. – Т., 1926. – С.24.

²² Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 118.

²³ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Т.: Ўзбекистон, 1978. – Б.31.

²⁴ Маҳмуд Кошғарий. Девони луғотит-турк. Биринчи том. – Т.: Фан, 1960. – Б. 186.

²⁵ Самойлович А.Н. Богатый и бедный в тюркских языках // Известия АН СССР отд. Общ. наук. 1936. – №4. – С. 31-32.

Bu nom bilan ataluvchi hududlar Ozarbayjonning bir qancha joylarida, Turkmaniston, Eron, Ozarbayjon va Iroq respublikasi, shuningdek, Turkiyada ham mavjud²⁷.

Ushbu etnonimga asos bo'lgan qadimgi turkiy *bay* so'zining etimologiyasi, turkiy xalqlar tarixining turli davrlarida anglatgan ma'nolari, shuningdek, mazkur so'z asosida hosil bo'lgan yangi apellyativlar, qo'shni xalqlar tiliga o'zlashish sabab va omillari xususida V.V.Radlov, N.A.Baskakov, S.Y.Malov, E.V.Sevortyan kabi olimlar tomonidan e'tiborli fikrlar bayon qilingan.

Qayd etilgan ishlarni umumlashtirib tahlil qilgan N.Kudachina ham o'zining mavzuga doir yangi mulohazalari bilan boyitgan²⁸.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Toponimlarning tuzilishiga ko'ra tavsifi”** deb nomlangan. Bobning “Sodda toponimlar” deb nom olgan 1-bo'limi avvalida BJTT tarkidagi sodda tub toponimlar tahlil qilinib, ular bir asosdan va asosga formant qo'shilishidan shakllangan yasama nomlar kabi guruhlarga ajratilgan. Tub toponimlar faqat toponimik asosdan, ya'ni onomastik leksikadagi so'zlarning asos qismidan iborat bo'ladi. Tub toponimlar yasama, qo'shma va birikmali toponimlarga nisbatan hosil bo'lishi jihatidan birlamchidir. Tub toponimlar yasama, qo'shma va birikmali toponimlarning yasalish, paydo bo'lishi uchun asos sanaladi. Buxoro viloyati janubiy hududi bo'lgan Qorako'l toponimiyasi tizimida *Arna, Do'rman, Uyg'ur, Vaxim, Org'un, Osiyo, Qiyos, Qozon, Sayot, Ziyorat* kabi tub toponimlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu bilan birga, Olot tumanida ham bunday sodda tub tipidagi toponimlar miqdori anchani tashkil etadi. *Chinor, G'uncha, Kamolot, Qalqon, Saodat, Sokin, Denov, Qo'ng'iroq, Zilol, Balxi, Chandir, Bayot, Olot, Obod* kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

BJTT tarkibida sodda toponimlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: antroponim asosli: *Adham, Chig'atoy, Bo'ribek, Davlatboy, Muxtor, Qahramon*. (bunday tipdagi toponimlar tizimi tarixiy shaxslarning nomlarini abadiylashtirish, ular nomini xotirlash maqsadida nomlanadi. Shunindek, nom berilgan hudud tarixi, uning shakllanishida biror kishining xizmati inobatga olinib, uning nomi beriladi); toponim asosli: *Osiyo, Qandim, Sayot, Solur, Chovli, Jig'achi, Og'ar, Burjoq, Denov, Olot* (toponim asosli joy nomlari shahar, tuman, mahalla, ko'cha, guzar kabilarni atash uchun qo'llangan); gidronim asosli: *Arna, Shimoliy* kabi.

BJTT yuzasidan olib borilgan kuzatishlarimiz toponimlar asosan: 1) affiksastiya usulida; 2) sintaktik usulida; 3) onomastik konversiya usulida yasalishini ko'rsatdi. Hududda quyidagi qo'shimchalar ishtirokida nomlar mavjud: -lar: *Olimlar, Pirlar, Shayxlar, Xo'jalar*; -on: *Shohimardon, Qumkashon, Sho'rkashon*; -ak: *Hovuzak, Murg'ak*; -ar: *Og'ar*; -goh: *Ziyoratgoh*; -zor: *Bodomzor, Gilozor, Lolazor, O'rikzor, Mevazor, Olmazor*; -li: *Darg'ali, Jiydali, Ilonli, Kesakli, Kundali, Nurli, Ziyoli, Fayzli, Chovli*; -lik: *Ahillik, Beklik, Boylik, Do'stlik, Qarshilik, Tinchlik, Xo'jalik, Yakdillik, Shodlik*; -chi: *Jig'achi*,

²⁶ Рашид-аддин. Сборник летописей. Том I. Кн.1. Перевод с персидского Л. А.Хещгурова. – М., 1952. – С. 88.

²⁷ Гусаинзаде А. Параллели огузских этнонимов в современной топонимии Азербайджанской ССР//СТ. – Баку, 1977. – №4. – С. 47-51.

²⁸ Ёўлдошев Д. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-этимологик тадқиқи. – Т., 2012.

Mo'ynachi, Pichoqchi, Qaymoqchi, Qoraqulonchi, Qulonchi, Qo'rchi, To'qimachi, Surmachi, Chekirchi, Chovurchi; -iston: Bahoriston, Guliston, O'zbekiston kabi.

Bobning "Qo'shma va birikmali toponimlar" nomli 2-bo'limida BJTT qo'shma va birikmali kabi guruhlarga ajratilgan holda tadqiq etilgan.

Qo'shma toponimlar. BJTT sirasida ikki yoki undan ortiq asosning birikuvidan tuzilgan nomlar ko'plab uchraydi. Ushbu nomlar kelib chiqishi, ma'no xususiyatlariga ko'ra xilma-xildir. Qo'shma toponimlar, asosan, ikki asosning birikuv natijasida yuzaga keladi hamda bir tushuncha ifodalagani sababli bir bosh urg'uga ega bo'ladi.

[Sifat+ot] qolipidagi qo'shma toponimlar ikki va undan ortiq toponimik asoslarning birikuvidan hosil bo'lib, u bir butun so'z holiga keladi. Bunday toponimlar sirasiga [rang-tus bildiruvchi sifat+ot], [hajm-o'lchov bildiruvchi sifat+ot] qolipi vositasida shakllangan nomlarni kiritish mumkin.

Oq. Ushbu rang bildiruvchi so'z izohli lug'atda o'n bir ma'noda qo'llanishi ko'rsatilgan²⁹. Ushbu so'z tabiatdagi rang, shaxs, predmet va hodisa bilan bog'liq ma'nolarda qo'llanadi. Shuningdek, oq so'zi toponimlar tarkibida ham tez-tez ko'zga tashlanadi. Buxoro viloyati toponimiyasida *oq* so'zi ishtirokida bir qancha qo'shma toponimlar yasalgan: *Oqoltin, Oqibobo, Oqpartov, Oqpo'lat, Oqrabot, Oqqum.*

Oqpo'lot. Olot tumanidagi aholi yashash joyi. Ushbu toponim etnotoponim sanalib, bu yerda po'loti qavmiga mansub aholi vakillari istiqomat qilishadi. Toponim qo'shma nom bo'lib, ikki qismdan iborat: *oq+po'lot*. Yasalish qolipi: *sifat+ot*. T.Nafasovning qayd etishicha, bino, imoratlarga nisbatan *oq* so'zi rang ma'nosini bildirmaydi. Davlat (xonlik, beklik, to'ralik) tomonidan qurilgan masjid, saroy, qo'rg'on, rabotlarga nomiga *oq* so'zi qo'shilganda davlat, hukumat, hokimiyat, katta, ulkan, buyuk; hashamatli, salobatli ma'nolarini anglatgan. Bundan anglashiladiki, bu toponim ham rang emas u yerda yashayotgan aholining ko'lamini bildirib kelmoqda.

BJTT [son, miqdor+ot] qolipidagi qo'shma toponimlar *uch* (Uchqir), *bash* (Qo'lbashqoq), *yetti* (Yettipahlavon), *qirq* (Qirqqal'a), *ming* (Mingchinor) kabi so'zlar ishtirokida paydo bo'lgan. Jumladan, BJTT tizimida *yetti* so'zi ishtirokidagi bitta toponim mavjudligi aniqlandi. *Yettipahlavon* (Qorako'l tumanidagi ko'cha nomi) qo'shma toponim bo'lib, tarkibi: *yetti+pahlavon*. Aynan: son bildiruvchi so'z va belgi bildiruvchi sifat. Toponim tarkibidagi *pahlavon* so'zi sifatdan otga ko'chgan. *Yetti so'zi joy nomlari tarkibida ko'p uchrashi, uning bir necha ma'nosi borligi, jumladan, Yettiquduq – ko'p quduqli, yonma-yon joylashgan, yaqin masofada bir necha quduqlar bo'lgan joy ekanligi qayd etilgan*³⁰. *Yetti* etnolingvistik atama bo'lib, ko'plik, qudratlilik ma'nosini anglatgan³¹. Demak, bu o'rinda *yetti* miqdor ma'nosini ifodalagan. Qorako'l tumanidagi mazkur toponim *pahlavonlar ko'p bo'lgan joy* ma'nosiga ega bo'lishi ham mumkin.

²⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б.175-176.

³⁰ Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Т.: Мухаррир, 2009. – Б.99.

³¹ Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1977. – Б.57.

Ming soʻzi toponimiyada alohida eʼtiborga loyiq sanaladi. Bu soʻz ishtirokida *Mingchinor* nomli toponim mavjud. Bu nom Qorakoʻl tumanidagi koʻcha nomidir. Toponim ikki qismdan iborat: *ming+chinor*. Aynan: miqdor bildiruvchi soʻz+fitonim. *Mingchinor* qoʻshma toponimida ishtirok etgan *ming* soʻzi son, miqdor maʼnosi bilan bogʻliq. *Mingchinor* – koʻp chinor daraxti oʻsgan joy³².

Xullas, qayd qilingan qoʻshma toponimlarda son shaklidagi birliklar ishtirokini kuzatish mumkin. Ularning koʻpchiligida son shaklidagi birliklar miqdor ifodalashga xizmat qilsa, ayrimlarida esa noaniq miqdor, koʻplik maʼnolari ifodalanadi.

Birikmali oykonimlar BJTTda salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Ular *katta, kichik, koʻhna, yuqori, quyi, eski* kabi soʻzlar vositasida shakllangan.

